e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/ndyar111

AMIR TEMUR VA TO‘XTAMISHXON MUNOSABATLARI JAN-BAPTIST MARGA DE TILLI TALQINIDA

Mamajonov Soyibjon Xalilovich
Farg‘ona davlat universiteti, sikl o‘quv dotsenti.
e-mail: mamazonovsoibzon28@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0001-5054-5058

Annotatsiya.
Maqolada XVIII asrda yashagan fransuz tarixchisi Jan-Baptist Marga de Tillining “Mo‘g‘ullar imperatori va Osiyoni zabt etgan Tamerlanning tarixi” asarida Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi munosabatlarning boshlanishi hamda rivojlanishiga oid keltirilgan ma’lumotlar tadqiq etilgan. Shuningdek, fransuz sharqshunosining ikki hukmdor o‘rtasida yuz bergan “Qunduzcha jangi” haqidagi qarashlari temuriylar davriga oid tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va muammoviy-xronologik metodlardan foydalanilgan. Fransuz tarixchisining Sohibqiron tashqi siyosatida Oltin O‘rda davlatining tutgan o‘rni va ahamiyati haqidagi fikrlari tarixiy manbalar bilan qiyoslanib, ulardagi ayrim xato va kamchiliklar yuzasidan ilmiy mulohazalar bildirilgan. Marga de Tilli tomonidan Amir Temurning “Qunduzcha jangi” davridagi faoliyati to‘liq yoritilmagani tarixiy manbalardagi ma’lumotlar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, To‘xtamishxon, Nizomiddin Shomiy, Ahmad ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Muiniddin Natanziy, Xondamir, Marga de Tilli, Eron, Oq O‘rda, Oltin O‘rda, “Dasht yurishi”, “Qunduzcha jangi”.

ОТНОШЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА И ТОХТАМЫШ-ХАНА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЖАН-БАТИСТА МАРГА ДЕ ТИЛЛИ

Мамажонов Сойибжон Халилович
Ферганский государственный университет, доцент учебного цикла.

Аннотация.
В статье исследуются сведения о возникновении и развитии отношений между Амиром Темуром и Тохтамыш-ханом, представленные в труде французского историка XVIII века Жан-Батиста Марга де Тилли «История Тамерлана, императора моголов и завоевателя Азии». Кроме того, взгляды французского востоковеда на Кундузчинскую битву между двумя правителями анализируются на основе исторических источников эпохи Тимуридов. В исследовании применяются методы сравнительного анализа и проблемно-хронологический метод. Суждения французского историка о месте и роли Золотой Орды во внешней политике Амира Темура сопоставляются с данными исторических источников, выявляются отдельные ошибки и недостатки его интерпретации. На основе исторических свидетельств показано, что деятельность Амира Темура в ходе Кундузчинской битвы освещена Марга де Тилли недостаточно полно.

Ключевые слова: Амир Темур, Тохтамыш-хан, Низамиддин Шами, Ахмад ибн Арабшах, Шарафиддин Али Йезди, Муиниддин Натанзи, Хондамир, Марга де Тилли, Иран, Белая Орда, Золотая Орда, «Степной поход», Кундузчинская битва.

RELATIONS BETWEEN AMIR TEMUR AND TOKHTAMYSH KHAN IN THE INTERPRETATION OF JEAN-BAPTISTE MARGAT DE TILLY

Mamajonov Soyibjon Xalilovich
Fergana State University, Associate Professor of the Academic Cycle.

Abstract.
This article examines the accounts of the origins and development of relations between Amir Temur and Tokhtamysh Khan presented in *The History of Tamerlane, Emperor of the Moguls and Conqueror of Asia*, a work by the eighteenth-century French historian Jean-Baptiste Margat de Tilly. The French Orientalist’s interpretation of the Battle of Kunduzcha between the two rulers is also analyzed through historical sources from the Timurid period. The study employs comparative analysis and the problem-chronological method. Margat de Tilly’s views on the position and significance of the Golden Horde in Amir Temur’s foreign policy are compared with historical evidence, and certain inaccuracies and shortcomings in his interpretation are discussed. Drawing on historical sources, the article demonstrates that Margat de Tilly did not provide a comprehensive

ISSN 3060-5059 (Online)

account of Amir Temur's activities during the Battle of Kunduzcha.

Keywords: Amir Temur, Tokhtamysh Khan, Nizam al-Din Shami, Ahmad ibn Arabshah, Sharaf al-Din Ali Yazdi, Muin al-Din Natanzi, Khwandamir, Margat de Tilly, Iran, White Horde, Golden Horde, Steppe Campaign, Battle of Kunduzcha.

Kirish. O'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida Amir Temur faoliyati, uning harbiy-siyosiy strategiyasi, diplomatik munosabatlari va davlat boshqaruvi tizimi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida yuz bergan siyosiy jarayonlar nafaqat Movarounnahr, balki Dashti Qipchoq, Eron, Kavkaz, Hindiston va Yaqin Sharq hududlarining tarixiy taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Mazkur davrning murakkab siyosiy voqealari orasida Amir Temur va Oltin O'rda hukmdori To'xtamishxon o'rtasidagi munosabatlar muhim o'rin egallaydi. Dastlab o'zaro siyosiy manfaatlar va harbiy ko'mak asosida shakllangan ushbu munosabatlar keyinchalik hududiy manfaatlar to'qnashuvi, siyosiy raqobat va keng ko'lamli harbiy qarama-qarshiliklarga aylangan.

Amir Temur va To'xtamishxon munosabatlarini o'rganish Markaziy Osiyo hamda Yevrosiyo hududidagi geosiyosiy jarayonlarning mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, To'xtamishxonning Oltin O'rdadagi hokimiyatini mustahkamlashga intilishi, Amir Temurning Movarounnahr xavfsizligini ta'minlash va mintaqaviy siyosiy muvozanatni saqlashga qaratilgan faoliyati ikki hukmdor o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashuviga sabab bo'lgan. 1391-yildagi Qunduzcha va 1395-yildagi Terek daryosi bo'yidagi janglar mazkur siyosiy ziddiyatlarning eng muhim tarixiy voqealari sifatida baholanadi. Ushbu to'qnashuvlar Oltin O'rdaning siyosiy va iqtisodiy mavqeyiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, Yevrosiyo mintaqasidagi kuchlar nisbatining o'zgarishiga olib kelgan.

Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi munosabatlar Sharq tarixnavisligi bilan bir qatorda, Yevropa sharqshunosligi va tarixshunosligida ham keng qiziqish uyg'otgan. Ayniqsa, fransuz tarixchisi va sharqshunosi Jan-Baptist Marga de Tillining (Jean-Baptiste Margat de Tilly) Amir Temur faoliyatiga bag'ishlangan tarixiy talqinlarini o'rganish ushbu masalaga Yevropa tarixshunosligi nuqtayi nazaridan yondashish imkonini beradi. Uning tarixiy qarashlarini tahlil qilish orqali Amir Temur va To'xtamishxon munosabatlarining Yevropa ilmiy tafakkurida qanday aks ettirilgani, voqealarning sabab va oqibatlari qanday izohlangani hamda tarixiy shaxslar faoliyatiga berilgan baholarning xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Mazkur mavzuni tadqiq etishda tarixiy voqealarning xronologik ketma-ketligini tiklash bilan cheklanmasdan, ularning siyosiy, diplomatik va geostrategik mohiyatini ochib berish ham muhim hisoblanadi. Shu jihatdan, Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi dastlabki ittifoqchilik munosabatlari, keyinchalik yuzaga kelgan ziddiyatlar, harbiy yurishlarning sabablari hamda ularning mintaqaviy siyosiy jarayonlarga ta'sirini tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida o'rganish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fransiyada temuriylar davriga oid manbalarning XVII asrdan boshlab fransuz tiliga tarjima qilina boshlagani Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirgan. Masalan, 1648-yilda Per Vate tomonidan Ahmad ibn Arabshohning «Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur» asarining arab tilidan fransuz tiliga tarjima qilinishi Sohibqiron tarixiga bo'lgan qiziqishni G'arbiy Yevropada yanada kuchaytirgan [3]. XVIII asrning dastlabki qismida Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarining Peti de la Krua [1] tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinishi Yevropadagi sharqshunoslarga Sohibqiron faoliyatini turli yo'nalishlarda o'rganish imkonini yaratdi. Jan-Baptist Marga de Tilli (1689–1747) mashhur fransuz sharqshunoslaridan biri bo'lib, u o'zining «Mo'g'ullar imperatori va Osiyoni zabt etgan Tamerlanning tarixi» [2] nomli asarida Amir Temur va To'xtamishxon munosabatlariga to'xtalib o'tgan. Dastlab muallif tadqiqotining kirish qismida Ahmad ibn Arabshohning «Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur» hamda Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» kabi manbalaridan foydalanganini ta'kidlagan [4:530].

Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xolislik, qiyosiy-tarixiy tahlil, manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Bu esa Amir Temur va To'xtamishxon munosabatlarining tarixiy mohiyatini har tomonlama yoritish, shuningdek, mazkur masalaning Yevropa tarixshunosligidagi talqinlarini tanqidiy baholash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Marga de Tilli Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni mazkur tadqiqotining birinchi qismida yoritgan. Dastlab muallif XIV asrning 70-yillarida Oq O'rdada siyosiy vaziyat murakkab bo'lganligi haqida so'z yuritgan. Marga de Tillining ta'kidlashicha, To'xtamish 1376-yilda Oq O'rda hukmdorligini qo'lga olgan O'rusxon ta'qibidan qochib, Sohibqiron huzuriga kelgan [2:90]. «To'xtamish, — deb yozadi Marga de Tilli, — Amir Temur hayotining eng sinovli kunlarida kirib kelgan bo'lib, mazkur vaqtda temuriyzoda Mirzo Jahongir vafot etgan edi». Tushkun kayfiyatda va davlat ishlaridan chetda bo'lgan Amir Temur Oq O'rda shahzodasining tashrifidan mamnun bo'lib, o'zida yangi kuch topganligi Marga de Tilli tomonidan ta'kidlangan [2:90]. Darhaqiqat, mazkur voqealar temuriylar davri manbalarida ham bayon etilgan bo'lib, poytaxt Samarqandda To'xtamishxonni qabul qilgan Sohibqiron unga yuksak e'tibor ko'rsatgani haqida ma'lumotlar mavjud.

Shuningdek, Marga de Tilli Amir Temur tomonidan To'xtamishxonning Oq O'rda xoni O'rusxonga qarshi kurashda qo'llab-quvvatlanishi masalasiga ham e'tibor qaratgan. Fransuz sharqshunosining ta'kidlashicha, Amir Temur To'xtamishxon bilan bir necha marotaba yashirin tarzda suhbatlar o'tkazgan bo'lib, uning (To'xtamishxon — ta'kid bizniki, S. M.) Rossiyada katta vakolatlarga ega ekanligini bilib olgan [2:91]. Shu bois Amir Temur To'xtamishxonning Oq O'rda taxtini egallashi uchun homiylik qilgan [2:91]. Darhaqiqat, Sohibqiron shimoliy mintaqada o'z nazoratini o'rnatishni maqsad qilgan bo'lib, shu jihatdan To'xtamishxonni Oq O'rda taxti uchun kurashda ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagan.

Marga de Tilli mazkur asarining uchinchi bo'limida ikki hukmdor o'rtasidagi munosabatlarning ikkinchi bosqichi

haqida ma'lumot bergan. Muallifning fikricha, Oltin O'rdaning mutlaq hukmdori maqomiga ega bo'lgan To'xtamishxon Amir Temur tomonidan ko'rsatilgan yordamni unutib, unga qarshi ochiq kurash boshlagan [2:224–225]. Shu bois To'xtamishxon Armanistonning shimoliy qismiga yurish qilib, Amir Temurga zarar yetkazishni rejalashtirgan [2:225–226]. Darhaqiqat, XIV asrning 80-yillarida Sohibqironning Eronning shimoli-sharqiy qismidagi muvaffaqiyatli yurishlari To'xtamishxonni tashvishga solib qo'ygan. Buyuk Ipak yo'lining shimoliy va g'arbiy tarmoqlarida yetakchilikni qo'lga olishni maqsad qilgan To'xtamishxon Amir Temurdan avval Ozarbayjonga hujum qilib, mamlakatni talon-taroj qilgan.

Turon hamda Oltin O'rda hukmdorlari o'rtasidagi yashirin kurashning dastlabki bosqichini temuriylar davri muarrixlari [6:132; 8:106] bayon etgan ma'lumotlar asosida yoritgan fransuz sharqshunosi ushbu qarama-qarshilikning ikkinchi bosqichiga ham to'xtalib o'tgan. Marga de Tillining fikricha, «Uch yillik» yurish davrida Amir Temurning zafarli yurishlariga to'sqinlik qilish uchun To'xtamishxon Sohibqironga qarshi o'z qo'shinini yuborgan [2:226]. O'zining qat'iy tamoyillariga ega bo'lgan Amir Temur esa ushbu xatti-harakatlarga qarshi qo'shin yuborish bilan javob bergan [2:226]. Ikki hukmdor o'rtasidagi strategik kurashning yashirin shaklini muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy [8:109–110] ma'lumotlari asosida yoritgan Marga de Tillining mazkur masalaga ijobiy munosabat bildirgani uning ilmiy yutuqlaridan biridir.

Shuningdek, Marga de Tilli To'xtamishxon va Amir Temur o'rtasidagi ochiq kurashning dastlabki ko'rinishiga ham to'xtalib o'tgan. U 1388-yilda Oltin O'rda xoni tomonidan Movarounnahrga ulkan qo'shin bilan hujum uyushtirilganligini qayd etadi [2:226–227]. Mazkur masala bo'yicha ham fransuz sharqshunosi to'g'ri ma'lumot bergan. Darhaqiqat, To'xtamishxon XIV asrning 80-yillari oxirida Amir Temurning Eron masalasi bilan bandligidan foydalanib, Movarounnahrga bostirib kirganligini temuriylar davri manbalaridagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi [6:143; 8:116; 7:412].

Marga de Tilli yuqoridagi tarixiy jarayonlar bo'yicha e'tiborga molik fikrlarni mazkur tadqiqotida yoritgan bo'lsa-da, «Dasht yurishi»ga oid voqealarga batafsil to'xtalib o'tmagan [2:225–227]. Shuningdek, «Qunduzcha jangi» yakunidagi to'qnashuv tafsilotlarini, xususan, To'xtamishxonning mag'lubiyati bilan bog'liq voqealarni 1395-yilgi «Terek jangi» yakunidagi jarayonlar bilan qorishtirib yuborgan [2:281].

Marga de Tillining fikricha, «Qunduzcha jangi»da Sohibqiron Oltin O'rda xonini qo'lga olishni maqsad qilgan, biroq To'xtamishxon noma'lum manzilga qochib ketgan edi. «Bundan darg'azab Tamerlan, — deydi Marga de Tilli, — barcha lashkarini to'plab, mazkur buyuk imperiyaning hech bir yerini tark etmaslik uchun Yevropa Rossiyasiga yurishga qaror qildi. O'ziga kerakli narsalarni jamlab bo'lgach, u tatarlar Onzi daryosi deb nomlaydigan, hozirgi vaqtda Nieper* nomi bilan tanilgan Boristhene*ga olib boradigan katta sahro orqali yo'lga chiqdi. Ushbu daryo o'z bulog'ini Moskva atrofidagi tog'lardan oladi va Rossiyaning bir qancha hududlarini, shuningdek, Litva va Polshani sug'orib, Chersonnese Tauriqueda*gi Ilmen qo'ltig'ida Qora dengizga quyiladi» [2:281–282].

Darhaqiqat, To'xtamishxon «Qunduzcha jangi»da Amir Temurdan mag'lubiyatga uchragach, g'oyib bo'lgan. Oltin O'rda hukmdori va uning omon qolgan lashkarini qo'lga olishni rejalashtirgan Sohibqiron esa ularni Volga daryosi bo'ylab izlashni buyurgan. Amir Temur qo'shinlari omon qolgan Oltin O'rda lashkarini Tolyatti shahrining shimoliy tomoniga qadar ta'qib qilganligi manbalarda yoritilgan [8:139]. Garchi fransuz sharqshunosi Sohibqiron tomonidan 1391-yilda Oltin O'rda xonini ta'qib qilish jarayonining boshlanish qismini manbalar asosida to'g'ri bayon qilgan bo'lsa-da, mazkur voqealarning davomiyligini noto'g'ri yoritgan.

Marga de Tillining ta'kidlashicha, «Qunduzcha jangi»dan so'ng Amir Temur To'xtamishxonni qidirib, Dnepr daryosi bo'ylari hamda Borispol shahriga yetib kelgan. Aslida, Sohibqiron mazkur hududlarga 1391-yilda emas, balki 1395-yildagi yurishi vaqtida kelgan [6:213; 8:178]. Marga de Tillining ushbu mulohazasidan shuni anglash mumkinki, sharqshunos «Qunduzcha jangi»dan so'ng sodir bo'lgan jarayonlarni 1395-yil voqealarining davomi sifatida tushungan. Shu jihatdan, ikki hukmdor o'rtasidagi to'qnashuvlarni bitta jang ketma-ketligida yoritib, «Terek jangi» va undan keyin davom etgan voqealarga to'xtalib o'tmagan.

Umuman olganda, Marga de Tillining mazkur asarida Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi munosabatlarning boshlanishi va rivojlanish bosqichlariga oid ilmiy ahamiyati yuqori bo'lgan fikrlar o'rin olgan. Ayniqsa, Amir Temur tomonidan Oq O'rda shahzodasining qo'llab-quvvatlanishiga oid muhim mulohazalar bildirilgani XVIII asr temurshunosligi uchun ulkan yutuqdir. Shuningdek, fransuz sharqshunosining Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi aloqalarning ikkinchi bosqichiga to'xtalib, ikki hukmdor o'rtasida Eron va Xorazm hududlari uchun kechgan geostrategik kurashni yoritgani mazkur tadqiqotning navbatdagi yutuqlaridan biri bo'lgan. Biroq Marga de Tilli «Qunduzcha jangi» haqida so'z yuritsa-da, mazkur jang yakunida sodir bo'lgan voqealarni «Terek jangi»ning tugallanishidagi jarayonlar bilan qorishtirib yuborgani olimning tadqiqotidagi asosiy xatolardan biri bo'lgan.

Xulosa. Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy tahlili XIV asr oxirida Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoq hududlarida kechgan siyosiy jarayonlar murakkab hamda o'zaro bog'liq xususiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur munosabatlar dastlab siyosiy hamkorlik va harbiy ko'mak asosida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik ikki hukmdorning strategik manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida ochiq harbiy qarama-qarshilikka aylangan. Ushbu jarayon o'rta asrlar davlatlararo munosabatlarida siyosiy ittifoqlarning o'zgaruvchanligi, hududiy manfaatlar va hukmronlik uchun kurash muhim o'rin tutganini tasdiqlaydi.Amir Temurning To'xtamishxonni dastlab qo'llab-quvvatlashi Oltin O'rdadagi ichki siyosiy vaziyatga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, To'xtamishxonning hokimiyatni mustahkamlaganidan keyingi mustaqil siyosati ikki hukmdor o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini kuchaytirgan. Natijada yuzaga kelgan harbiy to'qnashuvlar, xususan, 1391 va 1395-yillardagi janglar Oltin O'rdaning siyosiy mavqeyi va harbiy salohiyatiga jiddiy zarba bergan. Bu voqealar Yevrosiyo hududidagi siyosiy munosabatlarning keyingi rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatgan.Mazkur tarixiy jarayonlarni Jan-Baptist Marga de Tilli talqini doirasida o'rganish Yevropa tarixshunosligida Amir Temur shaxsiyati va uning harbiy-siyosiy faoliyatiga nisbatan shakllangan qarashlarni aniqlash uchun muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Bunda tarixiy voqealarning bayoni, hukmdorlar faoliyatiga berilgan baholar hamda siyosiy ziddiyatlar sabablarining izohlanishini Sharq mualliflari asarlaridagi ma'lumotlar bilan qiyoslash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv

ISSN 3060-5059 (Online)

tarixiy voqealarga turli tarixshunoslik an'analari nuqtayi nazaridan baho berish va manbalardagi subyektiv qarashlarni aniqlash imkonini yaratadi. Shuningdek, Amir Temur va To'xtamishxon munosabatlarini faqat harbiy to'qnashuvlar doirasida emas, balki diplomatik aloqalar, savdo yo'llari ustidan nazorat, hududiy xavfsizlik va mintaqaviy siyosiy muvozanat masalalari bilan bog'liq holda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki mazkur omillar ikki hukmdor o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi va keskinlashuvida muhim rol o'ynagan.Umuman olganda, Amir Temur va To'xtamishxon munosabatlari o'rta asrlar xalqaro siyosiy aloqalarining murakkabligini, davlatlararo ittifoqlar va raqobatning tarixiy qonuniyatlarini hamda harbiy-siyosiy qarorlarning keng geografik hududlar taraqqiyotiga ta'sirini namoyon etadi. Ushbu mavzuni Jan-Baptist Marga de Tilli asarlari va boshqa tarixiy manbalar asosida qiyosiy o'rganish temuriylar davri tarixshunosligini boyitish, Yevropa sharqshunosligidagi tarixiy qarashlarni chuqurroq anglash va Amir Temur faoliyatining xalqaro tarixiy jarayonlardagi o'rnini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cherefiddin Ali Yezdi. Histoire de Timur-bec, connu sous le nom du Grand Tamerlan, empereur des Mogols et Tartares / traduit en français par M. Pétis de la Croix. – Delft: Chez Reinier Boitet, 1723. – Vol. 4. – URL: https://www.abebooks.co.uk/Histoire-Timur-Bec-connu-nom-grand-Tamerlan/30296199856/bd.
2. Margat J. B. Histoire de Tamerlan, empereur des Mogols et conquérant de l'Asie. – Paris: Chez Hippolyte-Louis Guérin, 1739. – Partie I. – 298 p.; Partie II. – 392 p. – URL: https://www.abebooks.com/Histoire-Tamerlan-empereur-Mogols-conquerant-lAsie/15567331719/bd.
3. Vattier P. L'Histoire du grand Tamerlan. – Paris: Chez Remy Soubret, 1658. – 248 p. – URL: https://play.google.com/store/books/details?id=r-VlZ9uipskC.
4. Amir Temur: bibliografiya / mas'ul muharrirlar X. Fayziyev, O. Bo'riyev. – Toshkent: Fan, 2020. – 530 b. – URL: https://ru.scribd.com/document/1061405432.
5. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy / fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi G'. Karimiy. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 264 b. – URL: https://book.iiau.uz/books/muntakhab-ut-tavorikhi-muiniy-1357.
6. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / fors tilidan tarjimon Yu. Hakimjonov; nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir A. O'rinboyev; izohlar va lug'atlar tuzuvchisi H. Karomatov; jug'rofiy nomlar izohi va Hofizu Abruning «Zayl» asari tarjimasi O. Bo'riyev. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 528 b. – URL: https://unilibrary.uz/literature/60864.
7. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / перевод, предисловие, примечания и указатели Д. Ю. Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – 346 с. – URL: https://www.academia.edu/169542289.
8. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / so'zboshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari A. Ahmad, H. Bobobekov. – Toshkent: Sharq, 1997. – 384 b. – URL: https://ziyouz.com/books/tarixiy/Sharafiddin%20Ali%20Yazdiy.%20Zafarnoma.pdf.